

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY-TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
Kengashining 10-sonli yig'ilish bayonnomasidan
KO'CHIRMA

Toshkent sh.

1-iyul 2026 yil

Qatnashdilar: 50 nafar Kengash a'zolaridan 41 nafari.

Kun tartibi: 4.10. 2026/2027 o'quv yilidan boshlab universitetda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash to'g'risida.

Eshitildi: Universitet rektori B.Tulaganov so'zga chiqib, universitetda ta'lim sifatini oshirish, o'quv-laboratoriya bazasini modernizatsiya qilish, professor-o'qituvchilar va xodimlarning ish haqlarini o'z vaqtida to'lash va ularni rag'balantirish hamda kommunal-ekspluatatsiya xarajatlarining ortishi munosabati bilan 2026/2027 o'quv yilidan boshlab to'lov-shartnoma summalariga o'zgartirish kiritish zaruriyatini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, taklif etilayotgan yangi shartnoma stavkalari talabalar uchun iloji boricha maqbul va ta'lim xarajatlarini qoplashga yo'naltirilgan holda hisoblab chiqilishini ma'lum qildi.

Muhokamadan so'ng, kiritilgan taklif kengash a'zolari tomonidan ochiq ovoz berish orqali bir ovozdan ma'qullandi.

Qaror qilindi: 4.10.1. Universitet rektori B.Tulaganovning "2026/2027 o'quv yilidan boshlab universitetda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini qayta belgilash to'g'risida"gi ma'lumoti asos uchun qabul qilinsin.

4.10.2. 2026/2027 o'quv yilidan boshlab universitetning bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha to'lov-kontrakt summasi miqdorlarini oshirish (*kamida 20%*) hisob-kitobi tayyorlansin va belgilangan tartibda tashkiliy ishlar amalga oshirilsin.

4.10.3. Mazkur qaror ijrosining nazorati universitet rektori zimmasida qoldirilsin.

Kengash kotibi



Z.Abduvaliyev